

YAPON TILIDAGI “足” -“ OYOQ” SO‘ZI QATNASHGAN IBORALARNING
O‘ZBEK TILIDAGI TAHLILI

Abduqodirova Farangiz

O‘zDJTU magistranti

Barchamizga ma’lumki, yapon va o‘zbek tillari agglyutinativ tillar hisoblanib, ularning ikkalasi ham Oltoy tillar guruhiga kiradi. Bu esa o‘z navbatida ularning o‘xshashligidan dalolat beradi. Biz buni gap bo‘laklarining gapda joylashgan o‘rni, qo‘shimchalarni qay yo‘sinda qo‘shilishidan va boshqa belgilardan bilishimiz mumkin. Bundan tashqari iboralarda ham o‘zaro o‘xshashlikka duch kelishimiz mumkin. O‘zbek tili va yapon tili iboralarga juda boy tillar hisoblanadi. Iboralarning ko‘pligi nafaqat til boyligini, balki xalqning turmush tarzi, kundalik hayoti, nutq madaniyatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ham ko‘rsatib turadi. Aynan shuning uchun ham iboralarda millatning o‘ziga xos xususiyatini ochib berishda eng muhim unsur hisoblanadi.

Ibora — tilimizning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biridir. Ular ikki va undan ortiq so‘zning ko‘chgan ma’nolari asosida tarkib topgan lug‘aviy birlik bo‘lib xuddi so‘z kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi. Masalan, xamirdan qil sug‘urganday iborasi, “osonlik bilan”, “qiyinchiliksiz ” ma’nosini, ko‘ngil bermoq iborasi “sevmoq” ma’nosini, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan iborasi “yuvosh” ma’nosini bildiradi.³³

Frazeologiya tilshunoslikning iboralarni o‘rganadigan bo‘limidir. Ensiklopedik lug‘atlarda “Frazeologiya” atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Frazeologiya - (yunoncha - “phrases” ibora, nutq birikmasi, “logos” fan, tushuncha) tilning tarixiy rivoji va hozirgi holatiga doir frazeologik tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limidir”³⁴. “Frazeologiya” atamasiga tilshunos olimlar o‘zlarining qarashlariga muvofiq turlicha ta’rif berib o‘tganlar.

Masalan, mashhur tilshunos olim V.N.Teliya “Frazeologiya atamasi lingvistikaning , frazeologik birikmalarining grammatik tuzilishi va ma’nosidan qat’iy nazar ularning barcha xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limdir” deb yozadi.³⁵

Alpatovning fikricha, "Frazeologiya" so‘zining bir necha ma’nosi bor. Lingvistik atama sifatida u tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, frazeologik birliklar deb atalavuchi turg‘un so‘z birikmalarini o‘rganadi. Shuningdek, muayyan tilga xos mazkur birikmalarining yig‘indisini anglatadi.³⁶

³³ M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘ldoshev, D. Muhamedova. O‘zbek tili praktikumi. Toshkent. “Iqtisod-Moliya”, 2006 yil. 76-bet

³⁴ Лингвистический энциклопедический словарь. 2 издание, дополненное. -М.: Научное издательство Большая Российская энциклопедия, 2002. -707 б.

³⁵ Телия В.Н. Что такое фразеология, Москва, “Наука”, 1966. С.10

³⁶ D.K. Mutalova Hindi tilda son komponentli frazeologizmlar, Toshkent, 2012

N.M Shanskiy frazeologizmga quyidagicha ta'rif bergan: "Frazeologizmlar turg'un so'z birikmalari kabi tilning tayyor so'z birikmasi bo'lib, ma'no jihatidan yaxlit mazmunga ega. Ular tarkibidagi so'zlar va komponentlarning joylashishi o'zgarmaydi."³⁷

Frazeologik chatishma – bu barqaror so'z birikmasi bo'lib, o'zida mazmunan bo'linmas butunlikni namoyon etadi; butun birikmaning ma'nosi birikmadagi ayrim so'zlarning ma'nosidan anglashilmaydi. Birikma tarkibidagi so'zlarning ma'no jihatdan mustaqilligi butunlay yo'qolib ketadi: 馬が会う (umaga au) – "otlar uchrashishi", yulduzi yulduziga tog'ri keldi, bir-biriga mos keldi iborasi ikki insonning yaxshi chiqishishini anglatadi. 狐とタヌキ (kitsune to tanuki) – "tulki va tanuki», o'zbek tilidagi ko'r ko'rni qorong'ida topibdi iborasiga to'g'ri keladi.

Yapon va xitoy tili kelib chiqishi jihatdan mutlaqo farq qilsada, yapon yozuv tizimi xitoy yozuv tizimi asosida qurilgan. Iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida VI asrda xitoy ierogliflari Yaponiyaga kirib keladi. Hozirgi kunda zamonaviy yapon yozuv tizimida ierogliflar va ieroglif o'zagidan kelib chiqqan ikkita harflar tuzilmasi bor. Bundan tashqari yapon tilida o'zlashtirma so'zlar ko'p bo'lib, avvalo, xitoy tilidan (VIII asrdan XIX asrgacha) va ingliz tilidan (XX asr) olingandir. Bugungi kunda bir qator olimlarning fikriga ko'ra, yapon tili sintaksis jihatdan oltoy tillar oilasiga mansub bo'lib, lekin leksik-morfologik jihatdan malay-polineziya oilasining ta'siri kuchli bo'lgan ekan.

Yapon tilida ibora 「慣用句」 deb nomlanib, uning so'zma-so'z tarjimasini odatiy qo'llaniluvchi jumla ma'nosini bildiradi. Bundan tashqari 「成句」、「イディム」 deb ham yuritiladi. Yapon tilida ham iboralar o'zbek tilidek bir so'zga teng bo'lib, bir savolga javob beradi. Masalan, 「鼻が曲がる」、「口が悪い」、「耳が早い」.

Yapon tilidagi frazeologik birliklarning sezilarli qismi (5 %) taqlid so'zlar, ya'ni onomatopea asosida tuzilgan ekan: バリバリかむ (baribari kamu), バリバリさく (baribari saku), バリバリやる (baribari yaru), ぱったりこなくなり (battarikonakunari), バチンとぶつ (bachinto butsu), びりびり感じる (biribiri kanjiru), びしょうびしょうに濡れる (bishyo:bishyo:ni nureru), びちゃびちゃ歩く (bityabitya aruku), ブラブラ歩く (bura bura aruku), ボンボン花火が上がる (bon bon hanabiga agaru), ぼりぼりかじる (boribori kajiru), ボソボソ話す (bosoboso hanasu), ぼたぼた垂れる (botabota tareru), ブーブー言う (bu:bu: iu), ぶんぶん言う (bunbun iu), ぶつぶつ言う (butsubutsu iu), べらべらしゃべる (berabera shaberu), べちゃべちゃしゃべる (bechabecha shaberu), べちゃくちゃしゃべる (bechakucha shaberu), ビュービュー服 (byu:byu fuku), がぶがぶ (gabugabu), 青木と意気 (aokitoiki), あけてもくれても (aketemokuretemo), だれもかれも (daremokaremo).

Yapon tilidagi qator ot fe'lga bog'langan frazeologik birliklar o'zbek tilida butunlay boshqa so'z turkumlarida namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin: びしょうを帯びる (bishyou o obiru) "kulgi tashimoq", yuzida tabassum bilan;

³⁷ Н.М Шанский. Лексикология современно русского языка, М., 1972, с. 173

笑いを浮かべる (warai o ukaberu) -“kulgini suzish uchun qo'yib yuborish”, kulib yuborish; 害を春 (gai o haru) - “qaysarlikni cho'zish”, o'zinikida turib olish; がんを掛ける (gan o kakeru) -“duoni ilish”, duo qilish;

Yapon va o'zbek frazeologik birliklarining tahlili jarayonida o'zaro o'xshash birliklar ham yo'q emas, masalan 馬車馬のように働く (bashya umano youni hataraku) -“aravakash otdek ishlash”-eshakdek ishlash; 木石に等しい (bokusekini hitoshii) -“daraxt va toshlarga teng”-his-tuyg'usiz; あけても暮れても (aketemokuretemo) -“yorishsa ham, qorong'ulashsa ham”, har doim,doimo; 自分の目を疑う (jibun no me o utagau) -o'z ko'zlariga shubhalanish”, o'z ko'zlariga ishonmaslik.

Yapon tilida frazeologik birliklarning quyidagi turlari mavjud:

1. 成句 *seiku*-umumiy frazeologizmlar(idioma singari), birliklar. Bir necha so'zlardan tashkil topib, bir ma'noni beruvchi odatiy so'z birikmasi. Jamiyatda keng qo'llaniluvchi birlik, masalan:

時は金なり *toki-ha kanenari* «vaqt-puldir»;

目がない *me-ga nai* «ko'zi yo'q» -nimagadir suyagi yo'q.

2. 慣用句 *kan'yoku*-frazeologizm-idiomalar, yapon frazeologizmida ushbu atama asosan 成句 ga sinonim sifatida ishlatiladi, masalan:

顔が広い *kao-ga-hiroi* «yuzi keng» -taniqli, tanish-bilishi ko'p;

3. 四字熟語 *yojjukugo*-xitoy tiliga mansub frazeologizmlar.

4. ことわざ *kotowaza*-maqol va matallar:

愛してはその醜を忘れる。 *Aishite-wa sono shu-o wasureru*. «Agar sevib qolsang, hunukligini ham unutasan». -Sevgining ko'zi ko'r.

足下から鳥がたつ。 *Ashimoto-kara tori-ga tatsu*. «(Huddi) qush (kutilmaganda) oyoq ostidan chiq». -Tomdan tarasha tushgandek.

5. 決まり文句 *kimarimonku* -bir qolipdagi, belgilangan ibora, masalan:

お早うございます *ohayo:gozaimasu* «hayrli tong»;

お迎えにあがりました *omukae-ni agarimashita* «sizni kutib olishga keldim».

Yapon tilidan *yojjukugo* ya'ni “to'rt ieroglifdan tashkil topgan tayyor so'zlar”ni tez tez uchratishimiz mumkin. Odatda yapon frazeologik birliklarida kana va ierogliflarda yoziluvchi turli xil so'z turkumlari va Grammatik birliklardan tashkil topgan so'z birikmalari yoki gaplarni ko'rishimiz mumkin. Lekin yojjukugolar faqat ierogliflardan tashkil topgan barqaror birlik hisoblanadi. Uning bir qismi ot, bir qismi ravish vazifasini bajaradi. Yojjukugo ikki turga bo'linadi:

1. Idioma bo'lmagan murakkab birikma-to'rt ieroglifdan tashkil topgan murakkab so'z yoki so'z birikmasi. Uning frazeologik yojjukugodan asosiy farqi shundaki, so'zning umumiy ma'nosini har bir elementning alohida ma'nosidan tushunib olish mumkin. Bundan yojjukugolar barqaror birlik hisoblanmasdan turli ko'rinishda ishlatilishi mumkin, masalan:

大学教育 *daigakukyo:iku* (*daigaku* «oily o'quv yurti», *kyo:iku* «ta'im») -oliy ta'lim;

日露關係 *nichirokankei* (*nichi* «Yaponiya», *ro* «Rossiya», *kankei* «munosabat») – Rossiya-Yaponiya munosabatlari;

2. Frazeologizmlar- to'rt ieroglifda tashkil topgan barqaror birikmalar. Bunday yojjukugolar asosan poetic frazeologizm bo'lib, ba'zida esa to'liq gap vazifasida ham ishlatilishi mumkin:

会者定離 *eshajo:ri* (*e* «uchrashuv», *sha* «inson», *jo:* «qoida», *ri* «ajralmoq») – hayot o'zgaruvchan va tez o'tadi, har bir uchrashuvda ayriliq bor;

語言無味 *gogenajiwainashi* (*go* «so'z», *gen* «gapirmoq», *ajiwainashi* «didsiz») – kitob o'qimaydigan insonning so'zi oddiy va ta'sirsiz.

Yojjukugo va uning frazeologik turi tarixiy manbaalarga ko'ra tahminan X asrda Yaponiyaga kirib kelgan. Ular 成語 «cheng yu» xitoy idiomalaridan kelib chiqqan bo'lib, o'zida qadimgi xitoy adabiyotiga oid sitatalar, balandparvoz so'zlar, madaniy qoldiqlarni jamlagandir. Yojjukugoning bunday xilma-xilligi 故事成語 *kojiseigo* deb nomlanadi. Bunday idiomalar odatda kangoda yozilib, asosan yozma nutqda ishlatiladi.

美人薄命 *bijinhakumei* (*bi* «go'zallik», *jīn* «odam», *haku* «kalta», *mei* «hayot») – go'zallarning hayoti qisqa;

醉生夢死 *suseimushi* (*sui* «mastlik», *sei* «hayot», *mu* «orzu», *shi* «o'lim») – mastlikda yashash, butun umr orzu qilish, arziri hech nima qilmay, orzu qilib o'lish.

Yojjukugolarning aksariyat qismi adabiy xitoy tilidan kelib chiqqan bo'lsa ham, yaponlar tomonidan tuzilgan o'z frazeologizmlari ham bor. Bu frazeologizmlar qadimgi yapon maqol, urf-odat, buddizm, yoki tarixiy voqealar asosida tuzilgandir. Masalan, 士農工商 *shino:ko:sho:* (*shi* «samuray», *no:* «dehqon», *ko:* «hunarmand», *sho:* «savdogar») – qadimgi Xitoy tabaqasini aks etgan, Yaponiyaga Edo davrida (1603-1867) kirib kelgan. Yaponiyada yaratilgan yojjukugolar:

一期一会 *ichigoichie* (*ichi* «bir», *go* «hayot», *e* «uchrashuv») – har bir uchrashuv hayotda bir marta bo'ladi (har qanday uchrashuv o'ziga hos bo'lib, boshqa hech qachon takrorlanmaydi);

手前味噌 *temaemiso* (*te* «qo'l», *mae* «oldi», *miso* «soya qaylasi») – o'zim tayyorlagan soya qaylasi (o'zini maqtash, o'ziga madhiya o'qish).

O'zbek tilida oyoq haqidagi iboralar asosan salbiy ma'noda ishlatiladi, masalan oyog'ini tirab olmoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqish-qaysarlik qilish; oyoq osti bo'lish-tahqirlanish; oyog'iga bolta urish-zarbar berish; oyog'iga yeqilish, oyog'iga bosh urish-yalinish; oyog'I tortmaslik-hohlamaslik; oyog'I yoqmaslik, oyog'I og'ir-qandaydir ishning o'xshamasligi; oyog'ini uzish-aloqa qilmaslik; oyoq uchi bilan ko'rsatish-mensimaslik va boshqalar.³⁸ Bundan tashqari oyog'idan o't chaqnaydi, oyog'i yengil kabi ijobiy iboralar ham yo'q emas. Quyida yapon tilidagi oyoq haqidagi iboralarni tahlil qilib, o'zbek tili bilan taqqoslab o'tamiz.

³⁸ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T., 1978.

足が遠のく (ashiga toonoku) - “oyoq uzoqlashishi”, avval tez-tez borgan joyga boshqa bormaydigan bo‘lish, o‘zbek tilidagi oyog‘ini uzish, qadamini uzish iboralariga to‘g‘ri keladi.

大学近くのお店の中でも特にあの飲食店にはよくいていたが、食中毒事件が起こってから、足が遠のいてしまった。(daigaku chikakuno otenno nakademo tokuni ano inshokutenniwa yoku itte itaga, shokuchu:doku jikenga okottekara, ashiga toonoite iteshimatta)

Universitet yaqinidagi do‘konlar orasida ayniqsa shu taomgohga ko‘p borar edim, ovqatdan zaharlanganimdan so‘ng, boshqa bormaydigan bo‘ldim. (oyog‘imni uzdim)

足が重い (ashiga omoi) - “oyog‘i og‘ir”, bu iboraning ikki ma‘nosi bo‘lib, birinchisi charchaganlikni bildirsa, ikkinchisi esa hohish yo‘qligini bildiradi. Birinchi ma‘nosiga o‘zbek tilidagi oyog‘im og‘irlashib ketyapti, oyog‘im uzilib tushay deydabdi iboralari to‘g‘ri kelsa, ikkinchi ma‘nosiga oyog‘im tortmayapti iborasi yaqin turadi.

立ち仕事で夜になったら、足が重くなり、子供と散歩にも行けない。(mai niche tachishigotode yoruni nattara, ashiga omoku nari, kodomoto sanponimo ikenai)

Ishim turib ishlaydigan ish bo‘lgani uchun kech tushishi bilan charchab, bolam bilan sayr qilgani ham bora olmayman.

あの先生は厳しすぎて、ところへ行って、何かをきくのはいつも足が重い。

(ano senseiwa kibishisugite, tokoroe ikunowa itsumo ashiga omoi)

U o‘qituvchi juda ham qattiqqo‘lligidan yoniga borib biror narsa so‘rashga oyog‘im tortmaydi.

足が速い (ashiga hayai) - “oyog‘i tez”, bu iborani o‘zbek tiliga tarjima qilganda oyog‘i chaqqon ma‘nosini bildirsada, aslida umuman boshqa ma‘noni bildiradi. Bu iboraning ikki ma‘nosi bo‘lib, birinchisi tez aynidigan mahsulotlarga nisbatan ishlatiladi, ikkinchi ma‘nosi esa sotuvda tez ketadigan ma‘noni anglatadi.

鮮度が落ちるとなんでもまずくなる。コンビニ食品も夏は足が速いから早く食べてしまわないといけないよ。(sendoga ochiruto nandemo mazuku naru. Konbini shokuhinmo natsuwa ashiga hayaikara hayaku tabete shimawanaito ikenaiyo)

Qanday mahsulot bo‘lsa ham aynishi bilan mazasi o‘zgaradi. Konbinining yeguliklari ham yozda aynishi mumkinligi uchun ertaroq yegan maqul.

足を洗う (ashiwo arau) - “oyoqni yuvish”, yomon do‘stlar bilan aloqani uzish, yomon odatdan voz kechish, hayotini o‘zgartirish ma‘nosida ishlatiladi. Shuningdek ish faoliyatini to‘xtatganda ham qo‘llaniladi.

家族と幸せだと友人からの言葉を考えた時、自分のアルコール中毒から足を洗う決意ができた。(kazokuto shiawasedato yuujinkarano kotobawo kangaeta toki, jibunno aruko:ru chu:dokukara ashiwo arau ketsuiga dekita)

Do‘stimning oilam bilan baxtliman degan so‘zini o‘ylagan paytim, o‘zinning spirtli ichimlikka bo‘lgan rujuni yo‘q qilaman degan qarorga keldim.

足蹴にする (ashigeni suru) - “oyog‘I bilan tepmoq”, bu ibora ikki ma’noga ega bo‘lib, birinchisi tepmoq; ikkinchisi esa yerga urmoq, yomon munosabatda bo‘lmoq ma’nolarini bildiradi. O‘zbek tilidagi oyoq osti qilmoq, oyog‘ini uchi bilan ko‘rsatmoq iboralariga mos keladi

足の踏み場もない(ashino fumibamo nai) - “oyoq bosishga joy ham yo‘q”, bu ibora so‘zma so‘z tarjima qilgan kabi hamma yer yoyilganligini anglatadi. Oz‘bek tilida ham oyoq bosishga joy yo‘q iborasi mavjud.

棚が倒れて、本や花瓶が散乱し、足の踏み場もない。(tanaga taorete, hon ya kabinga sanranshi, ashino fumibamo nai)

Shkaf ag‘darilib, kitob va vaza yerga sochilib oyoq bosishga ham joy yo‘q.

足を入れる (ashiwo ireru) - “oyog‘ini solish”, qandaydir ishni boshlash, yangi joyga boorish ma’nosidagi ibora. O‘zbek tiliga qadam bosmoq, kirib kelmoq tarzida tarjima qilinadi.

彼は芸能化に足を要れた。(karewa geinoukaini ashiwo ireta)

U san‘at olamiga qadam bosdi.

Yapon va o‘zbek tili agglutinativ tillar guruhiga kirib, o‘zaro o‘xshash bo‘lishiga qaramasdan til boyliklarida farq borligini kuzatishimiz mumkin. Umuman olganda yuqoridagi iboralar tahlilidan kelib chiqib , yapon va o‘zbek tilidagi iboralarni uch guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1. Yapon va o‘zbek tilidagi o‘zaro o‘xshash iboralar.

Bu iboralar ham leksik jihatdan ham semantik jihatdan aynan bir xil ma’nodadirlar. Ya’ni ular bir xil leksemalar bilan ifodalanilgan. Masalan, **足の踏み場もない**(ashino fumibamo nai) -“ oyoq bosishga joy yo‘q”, o‘zbek tilida ham hamma yer yoyilib yotganini anglatuvchi oyoq bosishga joy yo‘q iborasi mavjud. Bunda ham ma’no, ishlatilish o‘rni bir xil bo‘lib, yapon va o‘zbek tilida bitta somatik so‘z ishlatilgan.

2. Yapon va o‘zbek tillaridagi shakl va ma’no jihatdan o‘xshash iboralar.

Bir-biriga nisbatan ekvivalent sifatida qo‘llashimiz mumkin. Chunki ular leksik jihatdan deyarli bir xil so‘zlar bilan ifodalangan. Ammo ularda farqli tamonlar ham yo‘q emas. Masalan, **足をすくう**(ashiwo sukuu) -“oyog‘ini botirib olish”, o‘zbek tilidagi oyog‘idan chalish iborasiga mos keladi. Bu yerda ham bir xil somatik so‘z ishlatilgan va ma’no jihatdan o‘xshash.

3. Yapon va o‘zbek tilidagi farqli iboralar.

Bu iboralarni so‘zma so‘z tarjima qilib emas, balki muqobil ekvivalentidan foydalanish lozim. Masalan, **揚げ足を取る** (ageashiwo toru) - “ko‘tarilgan oyoqni olish”, o‘zbek tilidagi tanqid eshitish, ustidan kulish iborasiga mos keladi.